



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 1 (03)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

1

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Tursunov A.M. O‘zbekiston elektroenergetikasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va “Yashil” energetikaning o‘rni.....	7
Abdulazizov A.A. Raqamlashtirish sharoitida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish omillari.....	11
Jurayev D.A. Электротехника sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayoniga taʼsir etuvchi omillar.....	15
Suyarov Sh.S. Konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish.....	18
Кариева Л.С. Энергетика sanoati korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	21
Axtamov A.U. Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka taʼsiri xususida.....	25
Гафуров А.Б. Значение цифровой трансформации управления образованием в высших учебных заведениях.....	29
Абиткариев А.М. Значение развития человеческого капитала и стимулирования трудовой деятельности.....	33
Abdullayev D.G’. Intellektual kapital: tushunchasi, mazmuni va taraqqiyoti.....	37
Abdullayev M.G’. Xodimlarning professional rivojlanishini baholash usullari.....	42
Isakov A.Y. Tadbirkorlik sub’yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omillari.....	46
Ashurova G.N. Charm poyabzal sanoatining xom-ashyo ishlab chiqarish va uning zahira resurslari.....	52
Yo‘ldosheva M.F. O‘zbekistonda davlat budjeti daromad va xarajatlarining tarkibi va ularning statistik tahlili.....	56
Қулматов А.А. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni mintaqalarda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari.....	61
Babayev A.N. Yoshlar bandligini taʼminlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari va institutsional mexanizmlari.....	67
Sharipov H.A. Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va xo‘jalik yuritish shakli sifatidagi o‘ziga xos belgilari.....	71
Турдиева Я. Анализ коррупционных рисков в системе гчп в сфере дошкольного образования.....	75
Vaxidov A.K. Personalni tanlash va ishga yollashning xorijiy tajribalari.....	78
Gaymatova D.G’. Biznes faoliyatini samaradorligini oshirishda iqtisodiy-matematik tahlil.....	83
Pardayev E.E. Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi.....	87
Ibragimova S.A., Muradov Sh.D. Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida innovatsion usullarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari.....	91
Адилов Б.Б. Социальные услуги в Республике Узбекистан: современное состояние, проблемы и перспективы развития.....	96
Yoqubova Z.T. Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi munosiblikni taʼminlashning konseptual asoslari.....	101
Saidaxmedova N.I., Aripov A.S. Oliy taʼlim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati.....	106
Abduvovyeva X.Sh. O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xarajatlarining aholi farovonligiga taʼsirining korrelyatsion–regression tahlili.....	111
Умаров А.А. Хорижий тажрибаларга асосан янги банк хизматларини жорий этилишини ривожлантириш натижасида тижорат банкларини хизматлар жозибадорлигини ошириш...	116
Shoraximova Z.N. «O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini baholash».....	120
Умурзакова З.С. Меҳнат омилидан фойдаланишни такомиллаштириш йўллари.....	126
Karimov X.O. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning institutsional strategiyalari.....	130

Aхунов М.А. Корхона иқтисодий самарадорлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари.	134
Ахмаджонов С.С. Корхона асосий фондларидан фойдаланишни яхшилашнинг ижтимоий-иқтисодий самараси.....	138
Abdullayeva Sh.А. Veb-texnologiyaga asoslangan bir turdagi tovar zaxiralarini boshqarish va amaliy masalalarni optimallashtirish.....	142
Дусанов С.М. Таълим тизимида рақобат муҳитини ривожлантиришнинг молиявий ресурслардан фойдаланиш аҳамияти.....	146
Мамаражобов А.С. Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati natijalarini reytinglash va undan foydalanish masalalari.....	151
Nigmatova D.Z., Amanov E.G’. Kadrlar qo‘nimsizligining korxonalarida samaradorligiga ta’siri.....	157
Ikromjonova M.U. To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va tarkibi.....	160
Madaminjonov A.O. To‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari.....	164
Jamoliddinova S.S. Ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni.....	168
Akbaraliyev A.E. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni.....	173
Эрматова С.И. Учет обязательств в хозяйствующих субъектах.....	178
Maxsudov Sh.S. To‘qimachilik sanoati korxonalar faoliyati samaradorlikni monitoring qilishning ahamiyati.....	181
Boyev X.I., Adilov B.B. Mahalliy byudjetlar barqarorligi — ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash omili sifatida.....	186
Raxmonova N.A. Biznes ta’limida raqamli transformatsiya va innovatsion o‘qitish strategiyalari.....	190
Якубова Д.М. Применение экономико-математических моделей в промышленном производстве.....	194
Ibrohimov N.B., Jabbarov K.Y. Aylanma iqtisodiyotga o‘tishning fundamental asoslari: chiziqli modelning cheklovlari va barqaror rivojlanish imkoniyatlari.....	198
Matyoqubova D.O. Biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish.....	202
Rahmatullayeva F. Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishining tarmoqlararo diversifikatsiyasi va iqtisodiy faollikka ta’siri.....	206
Mamajonov L.A. Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari.....	209
Давруков Ф.У. Инновационные механизмы демонополизации в условиях цифровой трансформации экономики Республики Узбекистан.....	213
Убайдуллаева Н.Р. Роль перестрахования в управлении катастрофическими рисками и обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний.....	222
Abdullayev A.A. Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	227
Alimov O.N. O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari.....	230
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishda va boshqaruv mexanizmi bo‘yicha institutsional asoslari.....	235
Mamajonova N.A. Innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalarining transformatsiyasi hamda uning evolyutsiyasi.....	239
Sanaqulova A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish: muammolar va imkoniyatlar.....	243
Nazarov N.N. Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish.....	247
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati.....	251
Sanaqulova A., Ochilova M. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot.....	254
Umarov I.Y. Xalqaro darajada sifat menejmenti va ISO standartlarini rivojlanish tendensiyalari tahlili....	257

**RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA ENERGETIKA SANOATI KORXONALARINING
BARQAROR RIVOJLANISH OMILLARI**

**ФАКТОРЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ**

**FACTORS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF ENERGY INDUSTRY
ENTERPRISES IN THE CONTEXT OF DIGITALIZATION**

Abdulazizov Abdurashid Abduazim o‘g‘li

Toshkent davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishini ta’minlashga ta’sir etuvchi tashqi va ichki omillar kompleks tarzda tahlil qilingan. Unda bozor iqtisodiyoti va uni raqamlashtirish sharoitida energetika korxonalari faoliyatining o‘ziga xos xususiyatlari, xususan, iste’mol bilan uzviy bog‘liqlik, tarif siyosatining ahamiyati hamda ishlab chiqarish va operatsion zaxiralarni optimal boshqarish masalalari yoritilgan. Shuningdek, tashqi muhit omillari iqtisodiy, siyosiy, demografik, ilmiy-texnik, ijtimoiy va ekologik omillar kesimida tizimlashtirilib, ularning korxonalar barqarorligiga bevosita va bilvosita ta’sir mexanizmlari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Energetika sanoati, barqaror rivojlanish, tashqi omillar, ichki omillar, iqtisodiy omillar, raqamlashtirish, tarif siyosati, moliyaviy barqarorlik, kadrlar salohiyati, raqobatbardoshlik.

В данной статье комплексно проанализированы внешние и внутренние факторы, влияющие на обеспечение устойчивого развития предприятий энергетической промышленности. Рассмотрены особенности деятельности энергетических предприятий в условиях рыночной экономики и ее цифровизации, в частности их тесная взаимосвязь с потреблением, значение тарифной политики, а также вопросы оптимального управления производственными и операционными резервами. Кроме того, факторы внешней среды систематизированы по экономическим, политическим, демографическим, научно-техническим, социальным и экологическим направлениям, раскрыты механизмы их прямого и косвенного воздействия на устойчивость предприятия.

Ключевые слова: энергетическая промышленность, устойчивое развитие, внешние факторы, внутренние факторы, экономические факторы, цифровизация, тарифная политика, финансовая устойчивость, кадровый потенциал, конкурентоспособность.


This article provides a comprehensive analysis of external and internal factors influencing the sustainable development of energy industry enterprises. It examines the specific features of energy enterprises’ activities under market economy conditions and digitalization, particularly their close interconnection with consumption, the importance of tariff policy, and issues related to the optimal management of production and operational reserves. In addition, external environmental factors are systematized into economic, political, demographic, scientific-technological, social, and environmental categories, and the mechanisms of their direct and indirect impact on enterprise sustainability are revealed.

Keywords: energy industry, sustainable development, external factors, internal factors, economic factors, digitalization, tariff policy, financial sustainability, human capital, competitiveness.

Energetika sanoati korxonalari faoliyatining asosiy muhim xususiyati ularning iste’mol bilan uzviy bog‘liqligi bo‘lib, bu ishlab chiqaruvchi, uzatuvchi tizim kuchlaridan optimal foydalanish

muammosini keltirib chiqaradi. Bozordagi noaniqlik sharoiti va elektr energiyasining notekis iste'moli energiya sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishi elektr energiyasini yetarli darajada ishlab chiqarishga asoslangan bo'lib, u belgilangan quvvatni, shuningdek zarur operatsion zaxiraning mavjudligini ta'minlashdan iborat bo'ladi.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida tashqi omillar energetika sanoati korxonasining barqarorligiga ta'sirini tahlil qilish uchun, avvalambor, ular bilan bevosita nima bog'liqligini aniqlab olish talab etiladi. Turli iqtisodchilarning ilmiy ishlarining tahlili asosida biz barqaror rivojlanishga ta'sir qiluvchi tashqi omillarning eng keng tarqalgan tasnifini ajratib ko'rsatishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm. Energetika sanoati korxonasining barqaror rivojlanishiga ta'sir etuvchi tashqi omillar tarkibi

1-rasmda keltirilgan tashqi omillarning har biri korxonaning barqaror rivojlanib borishiga o'ziga xos tartibda bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi, shuning uchun ularning har birining ta'sirini batafsil tavsiflash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Umuman olganda jahon iqtisodiyotining va xususan milliy iqtisodiyotning farovonligi sanoat korxonalarining daromadli bo'lish qobiliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy omillarni tahlil qilishda quyidagi omillarni kiritish mumkin: moliya bozorlarining amaldagi rivojlanish holati, mamlakat iqtisodiyotining iqtisodiy inqirozga chidamlilik holati, ishlab chiqarishning umumiy pasayish darajasi, inflyatsiya darajasi, valyuta kurslarining bozordagi o'zgarishi va tovar narxi, tadbirkorlik faoliyati va aholining sotib olish qobiliyati, eksport yoki importning yomonlashishi mumkin bo'lgan sharoitlari, iqtisodiy blokada yoki sanksiyalar, iqtisodiy nizolar yoki kelishmovchiliklar.

Siyosiy kelishmovchilik va nizolar ko'rinishidagi turli xil omillar korxonada faoliyati davomida mavjud tahdidlarning paydo bo'lish darajasiga ta'sir qilishi mumkin. Masalan, siyosiy barqarorlik, mintaqaviy va milliy siyosat, antimonopol siyosat, davlatning soliq va pul-kredit siyosati, harbiy operatsiyalarning mavjudligi shular jumlasidandir.

Ushbu turdagi omillar sohasidan qat'iy nazar barcha turdagi korxonalariga ta'sir qiladi. Ularga quyidagilar kiradi: tug'ilish darajasi, o'lim darajasi, aholining soni va o'sish sur'ati, migratsiya va aholi zichligi, aholining jinsi va yosh tarkibi, etnik tarkibi, ta'lim standartlarini takomillashtirish jarayoni, ishchi va boshqaruvchi xodimlar sonini ko'paytirish jarayoni.

Bugungi kunda ishlab chiqarish texnologiyalari yo'nalishidagi innovatsiyalarning rivojlanishi juda katta sur'atlarda kechmoqda. Shubhasiz, ular energetika sanoati korxonalarining faoliyatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Chunki, innovatsiyalar ishlab chiqarishni soddalashtiradi va faoliyat yuritish jarayonini tezlashtiradi. Bu omillarga quyidagilar kiradi: fan-texnikalarni

takomillashtirishning rivojlanganlik darajasi, texnologik o‘zgarish sur‘ati, korxonaning innovatsiyani investitsion qo‘llab-quvvatlash darajasi, ilmiy va texnologik tadqiqotlarni olib borishda davlatning doimiy ishtiroki.

Ushbu omillar energetika korxonasi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xususiyatiga, ishlab chiqarish uslubiga, ishlab chiqarish sharoitlariga, korxonaning bozordagi hatti-harakatlariga, mahsulot (elektroenergiya) va xizmatlarga bo‘lgan talabga ta‘sir qiladi. Ular korxonaning iqtisodiy faoliyati shartlari va imkoniyatlarini, ularni joylashtirishni va natijada xarajatlarni aniqlashda yaqindan yordam beradi. Ijtimoiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin: aholining bandlik yoki ishsizlik darajasi, kadrlarning malaka darajasi, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash darajasi, aholini ijtimoiy himoya qilish darajasi.

Ekologik muhit tabiiy resurslarning mavjudligini va atrofdagi tabiiy muhitning holatini tavsiflaydi, shu bilan birga bu jarayonni energetika korxonasining o‘zini ham iqtisodiy faoliyatida hisobga olishi kerak, chunki ular ushbu faoliyatni amalga oshirish shartlari va imkoniyatlariga bevosita ta‘sir qiladi. Energetika sanoati korxonasining faoliyati ekologik muhit tomonidan qo‘yiladigan shartlarga qaratilgan bo‘ladi.

Quyida keltirilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir omillari tahlil qilinadi:

Energetika korxonasi barcha turdagi asosan tabiiy resurslarni, yetkazib beruvchilar orqali oladi, shuning uchun ular o‘zlarining majburiyatlarini vaqtida bajarishi, texnologik jarayonga mos kelishi, tovar aylanmasi hajmi va foydaga bevosita aloqador bo‘ladi, bu esa o‘z navbatida korxonaning barqaror rivojlanishiga ta‘sir qiladi.

Energetika sanoati korxonasining faoliyat yuritishi uning mahsulotlari (elektroenergiya)ga va xizmatlari (uzatish va taqsimlash)ga mijozlarni topish va mijozlarning talablarini to‘g‘ri qondirish qobiliyatiga bog‘liq. Binobarin, energetika korxonasi xaridorining ehtiyojlarini qondirish qobiliyati uning ichki jarayonlariga ta‘sir qiladi, chunki aynan shu omil korxonaning xarajatlarini qoplashi yoki foyda ko‘rishini belgilaydi.

Raqobatchilar eng dinamik va jiddiy ta‘sir qiluvchi tashqi omillardan biridir. Raqobatchilarga nafaqat bir xil mahsulotlar(elektroenergiya)ni taklif qiladigan, balki boshqa brendga ega muqobil energiya manbalarini tashkil qiluvchi va ishlab chiqaruvchi korxonalar ham kiradi. Raqamlashtirilayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida energetika sanoati korxonalari o‘z iste‘molchilarining ehtiyojlarini raqobatchilari kabi samarali qondirmasa, ularning faoliyati natijalari salbiy oqibatga olib kelishi mumkin. Raqobatchilarni kam baholash va bozorlarni ortiqcha baholash hatto eng yirik korxonalarni ham katta yo‘qotishlarga va inqirozga olib keladi.

Davlat idoralari energetika sanoati korxonasiga nisbatan soliq tizimi, davlat va byudjet mulki orqali, shuningdek qonunchilik hujjatlari orqali ta‘sir ko‘rsatadi. Energetika sanoati korxonalari qonun hujjatlari(soliq, mehnat muhofazasi)ga rioya qilishi shart. Aks holda u jarimalarni to‘lashi yoki hatto butunlay yo‘q bo‘lib ketishi mumkin.

Korxonaning barqaror rivojlantirishda ichki omillarga alohida e‘tibor qaratish lozim, chunki ular bevosita korxonaning faoliyatiga va uni samarali yo‘lga qo‘yishda qo‘llaniladigan choralarga bog‘liq bo‘ladi.

Energetika korxonasining barqaror rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillarga: tashkiliy, ishlab chiqarish, kadrlar, bozor, moliyaviy va ilmiy omillar kiradi.

Muhim ichki omil sifatida quyidagilarni ta‘kidlash lozim, ularga korxonaning moliyaviy va kadr resurslaridir. Bu omillar bir-biri bilan o‘zaro aloqada bo‘lib turadi, ya‘ni biri o‘zgarsa, ikkinchisi ham o‘zgarib boradi. Agar energetika sanoati korxonalari yetarli miqdordagi o‘z mablag‘iga, ya‘ni foydaga ega bo‘lsa, bu raqobat muhitida o‘zini ishonchli his qilishga zamin yaratadi.

Kadrlar omiliga kelsak, bularga quyidagilar kiradi: hodimlarning malakasi va motivatsiyasi, shuningdek kadrlar almashinuvi va qo‘nimsizligidir. Shuni ta‘kidlash kerakki, kadrlar qo‘nimsizligi qancha past bo‘lsa va hodimlarning malakasi yuqori bo‘lsa, korxonaning barqaror bo‘ladi. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, korxonaning muvaffaqiyatsizligining muhim qismi aynan boshqaruv hodimlarining malakasi, tajribasizligi yoki tajribaning yetishmasligi, ularning ichki muhitdagi o‘zgarishlarni hisobga olmasliklari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Bozor omillari, ya’ni korxonaning bozordagi raqobatbardoshligi to‘liq boshqarilmaydigan omillarga bog‘liq bo‘lishi mumkin, chunki har kuni yangi korxonalar paydo bo‘ladi hamda yangi turdagi energiya manbalarini taklif qiladi, bu esa keyinchalik ushbu energetika sanoati korxonasining raqobatbardoshlik darajasini pasayishiga olib keladi.

Ilmiy omillar asosan korxonada qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan zamonaviy ishlab chiqarish usullari va innovatsion texnologiyalarning joriy qilinganligi bilan belgilanadi. Bunda korxonaga qanchalik zamonaviy uskunalardan foydalanib elektroenergiya ishlab chiqarsa samaradorlik darajasi va barqarorlikka erishish ham shunchalik oson kechadi.

Shunday qilib, tadqiqotlar asosida shuni aytish mumkinki, energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan ichki omillar korxonaga faoliyatini tartibga solish imkoniyatini oshiradi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanishi ko‘p qirrali va murakkab jarayon bo‘lib, u tashqi va ichki omillarning o‘zaro ta’siri asosida shakllanadi. Tashqi muhit omillari korxonaga faoliyati uchun umumiy shart-sharoitlarni belgilab bersa, ichki omillar ushbu shart-sharoitlarga moslashuvchanlik va samarali boshqaruv imkoniyatlarini yaratadi. Ayniqsa, moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish, kadrlar salohiyatini oshirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish energetika korxonalarining raqobatbardoshligi va barqarorligini ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois, energetika sanoati korxonalarida barqaror rivojlanishga erishish uchun omillarni alohida emas, balki kompleks va tizimli boshqarish zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Савицкая Г.В. Экономический анализ: учебник. 14-е изд., перераб. и доп. М.: ИНФРА-М, 2011. 649 с./
2. Родионова В.М. Финансовая устойчивость предприятия в условиях инфляции /. – М.: Перспектива, 2010.
3. Л.Г. Скамай, М.И. Трубочкина. – М.: ИНФРА-М, 2010. – 201 с.
4. Иванова Л.И. Развитие методики анализа финансовой устойчивости как способа достижения объективной оценки финансового состояния организации [Электронный ресурс] / Л.И. Иванова, А. С. Бобылева // Менеджмент в России и за рубежом. – 2013. – № 2. – С. 35.